

## TIQXMMIning bir guruh faollari Mo'ynoq tomon yo'l olishdi.

Ma'lumki, Orol dengizining qurishi nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun sayyoramizga xavf solayotgan global ekologik muammolardan biriga aylangan. Shu sababdan ham Davlatimiz rahbari tomonidan mazkur xavfning salbiy oqibatlarini kamaytirish, ushbu muammoga jahon jamoatchiligining e'tiborini qaratish bo'yicha aniq takliflar ilgari surilmoqda. Qolaversa, qurib qolgan dengiz hududida butazor va daraxtzorlar barpo etish borasida amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, so'nggi yillarda Orolbo'yi hududida, dengizning qurigan tubida saksovul va boshqa sho'rga chidamli o'simliklardan iborat butazorlar barpo etilishi, hududda yashayotgan aholining turmush sharoitini yaxshilash borasidagi loyihalar amalga oshirilmoqda.



Viloyatlar hokimliklari, O'zbekiston ekologik partiyasi hamda boshqa qator tashkilotlar tashabbusi bilan o'tkazilayotgan Ekologik hayriya velomarafonini o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda velosportni ommalashtirish, Orolbo'yi hududida yashayotgan aholining turmush sharoitini yaxshilash hamda keng jamoatchilik e'tiborini dolzarb ekologik muammolar yechimini topishga qaratilgan.



Ushbu velomarafon joriy yil 21 maydan 5 iyunga qadar davom etishi ko'zda tutilgan bo'lib, marafon ishtirokchilari yurtimizning barcha hududlaridan o'tib Mo'ynoq tomon kelishmoqda. Ana shunday ezgu maqsad, amaliy tadbirlarda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining bir guruh faollari ham ishtirok etishmoqda faol ishtirok etishmoqda.



3 iyun kuni Toshkentdan Nukus shahriga yetib kelgan ishtirokchilar mezbonlar tomonidan iliq kutib olindi. Dastavval ishtirokchilar «Mo'ynoqqa madad» ekologik xayriya velomarafoni qatnashchilarini kutib olish hamda bo'lib o'tadigan tadbirlarda ishtirok uchun Qoraqalpog'iston Respublikasining Beruniy va Amudaryo tumanlarida joylashgan Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati tomon yo'l olishdi. Tadbir davomida «Mo'ynoqqa madad» ekologik xayriya velomarafoni qatnashchilari karnay surnay sadolari ostida kutib olindi. Kutib olish marosimi o'z yakuniga yetgach ishtirokchilar Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatiga sayohat uyushtirishdi.



Ma'lumot uchun: Ishtirok davomida Mo'ynoq tumani, kemalar qabristoni shuningdek, 5-iyun "Butunjahon atrof-muhit muhofazasi kuni"ga bag'ishlab tashkil etilayotgan "Rivojlanayotgan Orolbo'yi mintaqasi dunyo hamjamiyati nigohida" mavzuidagi xalqaro anjumanda ham ishtirok etish ko'zda tutilgan.

**TIQXMMI matbuot xizmati**